



navbatida auditorlar va auditorlik tashkilotlarini huquq va mas'uliyatlarini yanada oshirdi va ular o'rtasida raqobatni kuchaytirdi.

### **Asosiy qism**

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sanoat korxonalarida ichki nazoratni yangicha tashkil etish masalalariga e'tiborni sezilarli kuchaytirishni ob'yektiv zaruriyat qilib qo'ydi.

Ichki nazoratni korxonalaraxbariyati, buhgalteriya, yirik korxonalarda esa mahsus tashkil etilgan ichki nazorat xizmati bo'linmasi, xarajatlarni boshqarish bo'limi va boshqa bo'linmalar amalga oshiradilar.

Ichki nazorat Firmaning maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va rahbariyatning rejalashtirish, tashkil qilish, Firma faoliyati monitoringi va uning aloxida bo'linmalari monitoringi bo'yicha xarakterlarning natijasi bo'lgan jarayondir. Firmaning boshqaruvchilari birinchidan, maqsadlarni belgilashlari, Firma va alohida bo'linmalarning vazifalarini belgilashlari va shunga muvofiq ravishda tashkilotning tarkibini qurishlari lozim. Ikkinchidan, hisob - kitob va hujjatlashtirish tizimlarining samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlashi, oldinda turgan vazifalarni hal qilishlari lozim.

Ichki nazorat tizimi uni buhgalteriya nuqtai nazaridan aniqlash quyidagicha bo'ladi: ichki nazorat bu tashkilotning mol - mulkning saqlanishi va buhgalteriya yozuvlarining ishonchliligini ta'minlash bo'yicha tuzilma, siyosat, qoidalar va majmuasidir. Umuman olganda ichki nazorat nazoratdan nimasi bilan farq qiladi? Ichki nazorat bu nazoratning tashqi ko'rinishlari, qonun tomonidan tartibga solish, tashqi nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan bo'ladigan nazoratning aksi bo'lgan Firmaning ichidagi nazoratdir.

Firmaning hajmidan qat'iy nazar, auditor ichki nazorat tizimining vazifalari quyidagilar ekanligini tahlil qilishi mumkin:

- mulkni yo'qolishini oldini olish;
- maqsadga muvofiq ravishda ishlatish natijasidagi ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni oldini olish ;
- aniq, axborot beruvchi va o'z vaqtida ro'yxatga olishni ta'minlash ;
- samaradorlikni oshirish.

Faqatgina moddiy qiymatlilarning tartibli oqimi tejamkor va samarador ishlab chiqarishga olib keladi.

Firmning tuzilishi va boshqaruv modeliga mos ravishda shakllantirilgan ichki nazorat tizimini qo'llaydi. Ichki nazorat va u bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv tizimi Firmaning barcha ish va moliyaviy jarayonlari, filial va bo'linmalariga qo'llaniladi. Ichki nazorat tizimi besh qismdan tashkil topgan modeldan foydalanadi: umumiy nazorat siyosati, xavflarning baholanishi, nazorat tadbirlari, ichki kommunikatsiyalar, monitoring. Shuningdek ichki nazorat tizimi moliyaviy hisobotning to'g'riligi, to'liqligi va aniqligini ta'minlash uchun moliyaviy holat monitoringini o'z ichiga oladi.

### **Umumiy nazorat siyosati**



Umumiy nazorat siyosati ichki nazorat tizimining asosini o'zida namoyon etadi. Firma o'zaro harakatlarga, qonunchilikda amalda bo'lgan qoida va me'yorlarga muvofiq ish etikasiga rioya qilishga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishga erishdi. Huawei Firmasi o'zaro ta'sirlashuv standartlari aniqlangan, korporativ harakatlar kodeksini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, Firma o'z xodimlari korporativ harakat standartlari va majburiyatlarini tushunchilari uchun maxsus o'quv dasturlarini tashkil qiladi.

Firma vakolat va javobgarlik sohalari aniq ajratilgan, yaxshi tashkil qilingan boshqaruv tuzilishiga ega. Rahbariyat tuzilishi direktorlar, unga hisobot topshiruvchi qo'mitalar, funksional bo'linmalar va ko'p darajali ma'muriy guruhlarni o'z ichiga oladi. Huawei ning barcha guruhlari aniq ajratilgan vazifa va majburiyatlarga ega, bu vakolatlarining bo'linish prinsipiga rioya qilinishini kafolatlaydi. Firmada moliyaviy bo'lim rahbari ichki nazorat amalga oshirilishiga javobgar. Biznesni nazorat qilish bo'limi mukammallashtirish lozim bo'lgan jarayonlarni aniqlaydi va Firma moliya direktoriga ichki nazorat jarayonini yaxshilash doirasida qabul qilingan choralar to'g'risida axborot beradi, shuningdek ichki nazorat vositalari va usullarini ishlab chiqish sohasida moliya xizmati rahbarini qo'llab-quvvatlaydi. Ichki audit bo'limi operatsion faoliyatning barcha tarmoqlari uchun ichki nazoratning mustaqil monitoringini o'tkazadi va uning samaradorligini baholaydi.

### **Firmalarni baholash**

Firmani butun dunyo bo'yicha Firmaning biznes-jarayonlariga ta'sir qiluvchi xavflarning doimiy baholanishini ta'minlash maqsadida xavflarni boshqarish bo'yicha maxsus departament yaratdi. Bu departament ahamiyatli xavflarni boshqaradi, ichki va tashqi sohaning o'zgarishi bilan chaqirilgan, ehtimoli bo'lgan xavflarni aniqlaydi, xavflarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqadi, shuningdek ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar qabul qiladi.

Firmaning alohida biznes-jarayonlari uchun javobgar bo'lgan, oliy boshqaruvning barcha rahbarlari, shuningdek xavflarni aniqlaydi, baholaydi, ularni boshqaradi va mos keluvchi nazorat choralarini qabul qiladi. Baholash omillari salbiy hodisalar sodir bo'lishining ehtimoli va xavf hosil bo'lishining ehtimoliy ta'sirini o'z ichiga oladi.

### **Nazorat tadbirlari**

Firmalarga bu tizimni tadbiriq qilish: GPMS (Global Process Management System) global jarayonlarni boshqarish tizimi va BTMS (Business Transformation Management System) biznesning o'zgarishini boshqarish tizimini qo'llash, BPA (Business Process Architecture) biznes-jarayonlarning global arxitekturasini shakllantirdi va BPA asosida GPO (Global Process Owners) global biznes-jarayonlarga mas'ullarni aniqladi. GPO biznes-jarayonlar va ichki nazorat tizimini shakllantirilishiga javob beradi: KCP (Key Control Points) nazoratning asosiy nuqtalarini aniqlaydi, barcha mintaqa, filial va biznes-guruhlarda har bir jarayon bo'yicha majburiyatlarning taqsimlanishi va vakolatlarining bo'linishini amalga oshiradi; ichki nazoratning samaradorligini baholash uchun barcha KCP bo'yicha har oylik muvofiqlik tekshiruvini





tashkillashtiradi, tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlarni ommalashtiradi; ishning samaradorligini oshirish va berilgan biznes-maqсадlarga erishish uchun Firmaning biznes-rejasiga muvofiq tarzda jarayonlarni optimallashtiradi va ichki nazoratni amalga oshiradi; har bir tuzilma bo'linmasi bo'yicha jarayonlar va boshqaruvning umumiy tashkil etilish samaradorligini aniqlash uchun yarim yillik uchun SACA (Semi-Annual Control Assesment) nazorat tadbirlarini baholaydi va keyin baholash natijalari bo'yicha hisobotni audit bo'yicha qo'mitaga yo'naltiradi.

### **Ichki kommunikatsiyalar**

Firmada iste'molchilarga yetkazib beruvchilar va boshqa tomonlarda axborotlarni o'z vaqtida qabul qilinishini ta'minlash uchun axborot va kommunikatsiya kanallarining ko'p funksiyali tizimi yaratilgan. Shuningdek Firmada ichki axborotlarni yuborish uchun rasmiy kanallar tadbiri qilingan hamda xodimlar taklif va fikrlar almashishi mumkin bo'lgan Xinsheng community onlayn-jamiyati yaratilsh.

Firma rahbariyati barcha darajadagi departamentlar bilan ish masalalarini muhokama qilish uchun doimiy majlislar o'tkazadi va qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qiladi. Firmaning biznesni yuritish va jarayonlari bo'yicha siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni Intranet korporativ tarmog'idan olish mumkin. Rahbariyat va jarayonlar uchun mas'ullar Firma xodimlariga dolzarb axborotlarni yetkazish uchun biznes-jarayonlar va ichki nazorat tizimi masalalari bo'yicha o'quv dasturlarini doimiy tashkil qiladi. Firmada bir-biri bilan ta'sirlashuvni shu jumladan ichki nazorat samaradorligini baholash va mos keluvchi vazifalarning yechilishi bo'yicha munosabatlarni soddalashtirish maqsadida biznes-jarayonlar uchun mas'ullar uchun kommunikatsiya tizimi yaratilgan.

### **Monitoring**

Firmada shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun ichki kanal tashkil qilingan, antikorrupsiyani nazorat qilish mexanizmi va hisobga olish tizimi ishga tushirilgan. Ish etikasining me'yorlariga rioya qilish va biznesni vijdonan yuritish to'g'risida qabul qilingan Kelishuvda, yetkazib beruvchi kelishuvda keltirilgan teskari aloqa kanallari orqali Firma xodimining noma'qul harakatlari haqida xabar berishi mumkinligi aniq ko'rsatilgan.

Ichki audit bo'limi Firmada ichki nazorat samaradorligining mustaqil baholanishini amalga oshiradi va korporativ harakat me'yorlari buzilishlarini tergov qiladi. Tergov va audit natijalari audit bo'yicha qo'mita va oliy rahbariyatga taqdim etiladi.

### **Xulosa**

Firmada GPO va mintaqaviy menedjerlar uchun ishlab chiqilgan, ichki nazorat doirasida baholash va hisobot tizimi mavjud. Audit bo'yicha qo'mita Firmada ichki nazorat tizimining samaradorligini doimiy ravishda tekshiradi, nazorat tadbirlari munosabatida hisobotlarni ko'rib chiqadi va rejaning bajarilish jarayonini kuzatadi. Audit bo'yicha qo'mita GPO yoki har bir tuzilmali bo'limning top-menedjmentiga ichki nazorat faktiga nisbatan tushuntirish taqdim qilishga so'rov yuborishi va mos keluvchi



tuzatish choralarini qabul qilishni talab qilishi mumkin. Shuningdek zaruriyat tug'ilganida audit bo'yicha qo'mita kadr resurslari bo'yicha qo'mitaga intizomiy jazo choralarini qabul qilishni taklif qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Toshkent. "O'zbekiston" 1995 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent. 2000 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buhgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent 1996 yil.
4. "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Farmoni. Toshkent. Xalq so'zi. 1996 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moliyaviy nazoratni qo'llab - quvvatlash va moliyaviy nazoratning auditorlik shakllarini xo'jalik xayotga tadbqiq qilish to'g'risida" gi Qarori. Toshkent. 1993 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korxonani moliyaviy nazorat va uni xo'jaliklar hisobga joriy qilishda auditorlik - moliya nazoratining shakllari to'g'risida" gi Qarori. Toshkent. Xalq so'zi. 1993 yil. №198.
7. "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida" gi Qarori. Toshkent. 2000 yil. №365.
8. Azimovna, R. F. (2024). Yoshlar tadbirkorligi va uni rivojlantirish chora-tadbirlari. *Fan, tadqiqot va ishlanmalardagi eng yaxshi innovatsiyalar jurnali* , 3 (1), 340-343.
9. Rahmatullaeva, F., & Sharobiddinov, A. (2023). YALPI HUDUDIIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. *Izhtimo-gumanitar fanlarning muammolari/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.* , 3 (S/4), 140-146.
10. Asqarov, X. va Mirzayev, B. (2023). LEGO G 'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH. *OLTIN MIYA* , 1 (5), 4-8.
11. TAXIROVNA, Y. Z. (2024). Namlik va uning turlari. *Ilm-fanni targ'ib qilish* , 5 (1), 374-377.
12. Takhirovna, Y. Z. (2024). EFFECT OF ELECTRIC CURRENT ON THE HUMAN BODY. *Science and innovation*, 3(A2), 183-186.
13. qizi Mirzayeva, U. M. (2023). "FIZIKA" FANINI O 'QITISHDA INTEGRATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(28), 109-111.
14. Abduqaxorovich, A. X., Tojimatovich, K. I., & Islomiddin, I. (2024). PLITA USTUNLARINI KONSTRUKTIV TAHLILI. *Amerika texnologiya va amaliy fanlar jurnali* , 21 , 49-52.





15. Tojimatovich, K. I., Abduqahorovich, A. X., & Behruz, K. (2024). SIRKA KISLODINI REGENERATSIYA QILISH USTUNLARINI QO'YILGAN APPARAT PLITALARINI MODERNIZASYoT qilish. *Texnologiya va amaliy fanlar Amerika jurnali*, 21, 53-55.
16. Raximov, R. A., Asqarov, X., & Zokirjonov, A. (2023). MAHALLIY CHIQINDI TOSHLARDAN LEGO G 'ISHT TARKIBLARINI TAHLILI. *OLTIN MIYA*, 1 (28), 112-116.
17. Asqarov, X. va Qodirova, G. (2023). ALABASTR VA GIPS QURILISHDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI TAHLILI. *OLTIN MIYA*, 1 (5), 55-58.
18. Tojimatovich, K. I., Abdukahorovich, A. H., & Behruz, K. (2024). VINEGAR ACID REGENERATION MAKING COLUMN APPARATUS PLATES MODERNIZATION. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 21, 53-55.
19. Asqarov, X. A., Asqarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, USO (2021). Bino va inshootlarni qurishda g'ishtlarning tahlili. *Ilmiy taraqqiyot*, 1 (6), 1112-1116.
20. Asqarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., Maxmudov, S. M. (2022 yil, noyabr). "LEGO" G 'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *21-asrda innovatsion ta'limning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada* ( 1-jild, №7, 102-106-betlar).



## OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINING AXLOQIY ASOSLARI

**Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna**

*Namangan Davlat universiteti Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasida katta o'qituvchisi.*

**G'ulomjonova Adolat Xayrullo qizi**

*Namangan Davlat universiteti talabasi Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada nikoh va oilaning axloqiy asoslari, oila va nikoh jamiyatning asosiy qurilish bloklari yoritildi. Ular ijtimoiy birdamlik, qadriyatlarini uzatish va kelajak avlodlarni tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo oila va nikoh munosabatlarining axloqiy asosi nima va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oila, nikoh, oilaviy munosabatlar, axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, sog'lom avlod, g'amxo'rlik,*

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti sharoitida oilani mustahkamlash hamda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, -birinchidan, O'zbekiston aholisining deyarli yarmi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalardir;

-ikkinchidan, sog'lom avlod o'stirish-kelajagimiz garovidir;

-uchinchidan, bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtu-saodati, fazlu-kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, uzini ayamaydi.

Oila-nikoh munosabatlarining axloqiy asosi zamirida majburiyat tushunchasi yotadi. Nikoh, ayniqsa, ikki shaxsning bir-birini sevish, qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik qilish majburiyatiga asoslanadi. Bu majburiyat nafaqat qonuniy kelishuv, balki o'zaro hurmat, ishonch va sadoqatga asoslangan axloqiy rishtadir. Oilaviy munosabatlar esa ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar o'rtasida mavjud bo'lgan axloqiy majburiyatlarga asoslanadi. Ushbu majburiyatlar oila a'zolarining jismoniy, hissiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, barcha ishtirokchilar uchun tarbiyalash va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday degan: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolani harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr–oqibat, or–nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir." [1]

Lekin, zamonaviy oilalarda axloq-odob qoidalarini ijobiy singdirmaslik oqibatida har ikki tarafda tarbiyada qusurlar shakllanmoqda.